

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

6 ЖИЛД, 3 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ
ТОМ 6, НОМЕР 3

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY
VOLUME 6, ISSUE 3



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ | INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

№3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9513-2023-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Аскарлов Аброр Давлатмирзаевич
педагогика фанлари бўйича фалсафа
доктори

Педагогика йўналиши

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Мухамедова Дилбар Гафурджановна
психология фанлари доктори, профессор

Психология йўналиши

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ EDITORIAL BOARD РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Муслимов Нарзулла Алиханович
педагогика фанлари доктори, профессор

Джораев Мухамматрасул
педагогика фанлари доктори, профессор

Тўракулов Олим Холбўтаевич
педагогика фанлари доктори

Уразова Марина Батировна
педагогика фанлари доктори

Шорена Дзамукашвили
педагогика фанлари доктори

Шорена Вахтангишвили
педагогика фанлари доктори

Нурманов Абдиназар Ташбаевич
педагогика фанлари доктори

Халиков Аъзам Абдусаломович
педагогика фанлари доктори

Муסיнова Рухшона Юнусовна
PhD, доцент

Аюпова Мукаррам
педагогика фанлари номзоди, профессор

Джумаев Маманазар Иргашевич
педагогика фанлари номзоди, профессор

Ҳамидов Жалил Абдурасулович
педагогика фанлари доктори

Асилова Гулшан Асадовна
Педагогика фанлари доктори, доцент

Саипова Малоҳат Латиповна
*психология фанлари бўйича фалсафа
доктори*

Ҳажиева Ирода Адамбаевна
филология фанлари номзоди, доцент

Азимова Насиба Эргашовна
педагогика фанлари номзоди, доценти


Ахмедова Зебинисо Азизовна
фалсафа фанлари номзоди

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Кувондиков С.С. СТРУКТУРА И МНОГОЛЕТНЯЯ ДИНАМИКА СОРЕВНОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ БАСКЕТБОЛИСТОВ.....	4
2. Ernazarov Alisher Ergashevich GLOBALLASHUV DAVRIDA MA'NAVIY XURUJLARNING MILLIY MENTALITETIMIZGA TA'SIRI.....	7
3. Ernazarov Alisher Ergashevich TA'LIM OLISH JARAYONIDA TA'LIM OLUVCHILARNING VAZIFALARI.....	11
4. Ernazarov Alisher Ergashevich INTERNET TARMOG'I AXBOROT XURUJLARI.....	14
5. Ernazarov Alisher Ergashevich TALABA YOSHLAR MEDIASAVODXONLIGI - DAVR TALABI.....	18
6. Фатхулла Мирахмедов СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПОДГОТОВКИ ВОЛЕЙБОЛИСТОК 14–15 ЛЕТ К СОРЕВНОВАНИЯМ С УЧЕТОМ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ.....	22
7. Сардорхон Кувондиков ОЗДОРОВИТЕЛЬНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ СИСТЕМЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	25
8. Шаназаров Отабек ТЕХНОЛОГИЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ НАИБОЛЕЕ ЗНАЧИМЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ТРЕНИРОВОЧНОЙ НАГРУЗКИ ГИМНАСТОВ НА СОРЕВНОВАТЕЛЬНОМ ЭТАПЕ ПОДГОТОВКИ.....	29



ISSN: 2181-9513

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР | ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ

Ernazarov Alisher Ergashevich


Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri

Samarqand davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasini

Mustaqil tadqiqotchi

ern_alisher@mail.ru.

TALABA YOSHLAR MEDIASAVODXONLIGI - DAVR TALABI <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8020495>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada internet texnologiyalarining va internet xizmat turlarining, xususan ijtimoiy tamoqlarning jadal rivojlanib hayotimizning har bir sohasiga kirib kelishi, media voqyeligini tahlil va sintez qilish, mediamatndan foydalanish va uni tushunish, mediamadaniyat asoslarini bilish masalalari borasida soʻz yuritilgan.

Kalit soʻzlar: ilmiy tadqiqotlar, shakllantirish, ijtimoiy tamoqlar, mediamahsulotlar, mikroprocessor axborotlar, qarashlar, farazlarga tanqidiy, xolis va tahliliy yondashish, mantiqiy analiz qilib koʻrish, subektiv va xolis, texnologiyalar.

ABSTRACT

This article talks about the rapid development of internet technologies and internet services, especially social media, and its penetration into every sphere of our life, the analysis and synthesis of media reality, the use and understanding of media text, and the issues of knowing the basics of media culture.

Keywords: scientific research, formation, social food, media products, microprocessor information, views, critical, objective and analytical approach to hypotheses, logical analysis, subjective and objective, technologies.

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о стремительном развитии интернет-технологий и интернет-сервисов, особенно социальных медиа, и их проникновении во все сферы нашей жизни, анализе и синтезе медиареальности, использовании и понимании медиатекста, а также вопросах познания основы медиакультуры.

Ключевые слова: научное исследование, образование, социальная пища, медиапродукты, микропроцессорная информация, взгляды, критический, объективно-аналитический подход к гипотезам, логический анализ, субъективный и объективный, технологии.

Hammamizga ayonki, bugungi murakkab globallashuv davrida jamiyatimizda milliy gʻoya va mafkuraviy immunitetni

kuchaytirish, yoshlarimizni turli zararli g'oya va tahdidlardan asrash, ularni o'z mustaqil fikriga ega, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sh.M.Mirziyoyev.

Tadqiqotchilar va olimlarning mediata'lim sohasidagi yutuqlarini tahlil eta turib, shuni qayd etishimiz joizki, o'tgan asrda ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlariga mos ravishda tadqiqotlar mavzulari ko'lamini kino ta'limi, kino va maktab, bolalar va matbuotning o'zaro ta'siri va shunga o'xshash jarayonlarni o'rganish doirasidan chiqqan olmagan.

O'tgan asrning yetmishinchi yillarida televideniye va radioeshittirishlarning rivojlanib borishi natijasida aksariyat ilmiy tadqiqotlar radio va telemateriallardan foydalangan holda aynan tarbiya va ta'lim berish masalalariga bag'ishlanardi.

Televideniye va radio vositasida yosh avlodni voyaga yetkazish muammolarini V.V.Ksenofontov (televideniye maktab o'quvchilarini tarbiyalash omili sifatida), S.R.Feyginov (o'smirlarni tarbiyalashda televideniye va maktabning o'zaro ta'sirining pedagogik asoslari), V.A.Monastrskiylar (katta yoshdagi maktab o'quvchilarini sinfdan tashqari ishda televideniye vositasida tarbiyalash) tadqiqot ishlarini olib borishgan. Birinchi marta oliy maktab amaliyotida, nisbatan unchalik keng bo'lmagan yo'nalishda (V.I.Ivanov-Sganovning "Chet tili fani bo'yicha axborot manbalari sifatida o'quv filmlaridan foydalanishning xususiyatlari va xorijiy tillarga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtida og'zaki nutqni o'qitish uchun ulardan foydalanish) o'quv kinomateriallaridan foydalanish masalasi ko'tarilgan.

Televideniye vositasida estetik va axloqiy tarbiyalash masalalariga ham qiziqish yillar davomida ortib bordi, o'tgan asr saksoninchi yillarida G.A.Usovaning ishida teleradiouzatishning ta'siri ostida o'smirlarning qadriyatlariga nisbatan yo'naltirishni, yo'l-yo'riqlarini shakllantirish bo'yicha dolzarb bo'lgan masala ko'tarilgandi. "Radioeshittirish va televideniye o'smirlar qadriyatlarini shakllantirishning omillari sifatida" mavzusidagi G.Ya.Vlaskinaning dissertatsiyasi televideniye va radio vositasida katta sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash masalasiga bag'ishlangan. "Ommaviy axborotni yosh o'qituvchining professional faoliyatini takomillashitirish sharti sifatida pedagogik talqin etish" deb nomlangan T.M.Barmashevaning ishida ijtimoiy-texnik taraqqiyotning ancha o'zgaruvchan sharoitlarida mehnat jarayonida pedagoglarni tayyorlash masalasiga asosiy o'rin ajratilgan. Yigirmanchi asrning to'qsoninchi yillari va yigirma birinchi asrning boshlaridan yosh avlodning mass-media mahsulotlariga qiziqish haddan ortib borishi sezila boshladi. Yuqori sinflardagi maktab o'quvchilarini o'qitish va tarbiyalash jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari xususida M.Yu.Buxarkina, N.A.Lepskaya, N.P.Petrova, V.A.Samoylov va boshqalar o'z ilmiy ishlarida to'xtalib o'tishgan. Amaliy va ijodiy faoliyatda pedagogika ta'lim yo'nalishlari talabalari va o'qituvchilarini mediadan foydalanishga tayyorlash muammolariga bag'ishlangan ishlar ham ko'payib bormoqda (A.N.Gavrichenkov, N.V.Klemeshova, M.V.Moiseyeva, N.A.Legotina, L.K.Platunova, A.V.Fedorov va boshqalar).

Hozirgi davrga kelib, mediata'limi sohasida asosiy e'tibor o'quv-tarbiya jarayonida multimedia va internet texnologiyalarini qo'llash shartlari va metodikasini o'rganishga qaratila boshlandi. Rossiyada (I.V.Chelsheva) va AQShda (A.A.Novikova) mediata'lim taraqqiyotining tarixiy aspektlarini o'rganishga bag'ishlangan ilk dissertasion tadqiqotlar ham paydo bo'ldi.

Insoniyat tarixi o'z rivojlanish davrida bir necha axborot inqiloblarini bosib o'tdi. Masalan, yozuvning kashf etilishi, kitob chop etish, elektr toki va mikroprozessor texnologiyasi asosida ishlovchi kompyuterlarning paydo bo'lish davrlarini har birini kishilik jamiyati tarixida yangi sahifa ochuvchi axborot inqiloblari sifatida qarashimiz mumkin. Xuddi shu ma'noda hozirda internet texnologiyalarining va internet xizmat turlarining, xususan ijtimoiy tamoqlarning jadal rivojlanib hayotimizning har bir sohasiga kirib kelishini ham yangi bir axborot inqilobi sifatida ko'rishimiz mumkin. Bunda to'laqonli axborotga bo'lgan talab har qachongidan oshib bormoqda. Axborotni olish, saqlash, qayta ishlash va uzatish bosqichlarining o'zida ko'plab muammolar kelib chiqmoqda. Bu esa o'z navbatida talaba yoshlardan olinayotgan ma'lumotlarni rost va yolg'onini bir-biridan

ajrata olish, axborotlarni tanqidiy tahlil qila olish, turli xabarlarini saralay olish ko'nikmalari bo'lishini talab qiladi. Shu va shu kabi muammolar talabalarda mediasavodxonlik tushunchalarini rivojlangan bo'lishligini talab qiladi.

Savodxonlik tushunchasi hozirda juda keng ma'nodagi tushunchaga aylanib, computer literacy (kompyuter savodxonligi), audiovisual literacy va visual literacy (audiovizual savodxonlik), information literacy (axborot savodxonligi), media literacy (mediasavodxonligi), raqamli savodxonlik, multimediya savodxonligi kabi zamonaviy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Barcha sanab o'tilganlardan media literacy (mediasavodxonligi) tushunchasi ajralib turadi va u media voqyeligini tahlil va sintez qilish, mediamatndan foydalanish va uni tushunish, mediamadaniyat asoslarini bilishni, ya'ni mediata'lim natijasini nazarda tutadi.

Mediasavodxonlik ko'nikmalarini uchta asosiy yo'nalishlar bo'yicha taqsimlash mumkin:

- axborotlarni to'laonli tushunish;
- axborotlardan foydalanish;
- yangi axborotlarni yaratish.

Mediasavodxonlikning asosiy tushunchalariga kompyuter, zamonaviy telefonlar, audiovizual ma'lumotlar, mediaxabarlar, axborot va shaxsga oid ma'lumotlar kabilar kiradi.

Talaba yoshlar mediamahsulotlardan eng ko'p foydalanadigan qatlam hisoblanadilar. Demak, har bir zamonaviy yoshlar media bozorning «mahsulot»larini bilib o'sishi kerak. Bu intellektual axborot asrining talabi, zamonaviylikning sharti. Shuning uchun ham YuNESKO mediata'limni XXI asrda madaniy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilagan.

Media ma'naviy mahsulotlarning virtual bozori. Bu bozorda hamma o'z mahsulotini o'tkazish payida bo'ladi. Buzg'unchi, jinoyatchi, johillar ham o'z g'oyalari, ya'ni mahsulotlarini “eng yaxshi buyum”, deydi. Virtual olamda bunyodkorlik, taraqqiyot uchun zarur manbalar ham ko'p. Masala shaxsning ana shu bozor taklif etayotgan mahsulotlarni xarid qilishda adashmasligiga borib taqaladi. Bugungi tilda aytganda, gap mediamadaniyatni to'g'ri egallashida.

Demak, talaba yoshlar mediamatnlarni o'qiyotganda, mediamahsulotlarni tomosha qilayotganda ularni qabul etish, tanqidiy tahlil qilish, baholash va yaratish, zamonaviy jamiyatda mediamahsulotlarning ijtimoiy, ma'naviy, mafkuraviy, madaniy kontekstlarini to'g'ri tushuna bilishlari kerak. Bu esa shaxsning mediamadaniyati darajasi qandayligiga bog'liq. Ukrainalik pedagog olim S.M.Sterdenko mediamadaniyatli kishini shunday tasvirlaydi: “Uning mediabog'lanishlari soni va davomiyligi rejalashtirilgan bo'ladi. O'ziga kerakli axborotni to'g'ri tanlay oladi. Axborotga tanqidiy yondashadi, chunki u medianing zararli ta'sirlarini biladi, qarshisida ochilgan mediamatnni o'z filtridan o'tkazib, keyin qabul qiladi. Mediamahsulotdan foydalanishda axloq me'yorlariga amal qiladi. Mediamahsulot yarata oladi».

Mediamahsulotlarni zamonaviy ommaviy axborot vositalari turli xil formatlarda, jumladan bosma ommaviy axborot vositalari (kitoblar, jurnallar, gazetalar), televizor, filmlar, video o'yinlar, musiqa, mobil telefonlar, turli xil dasturiy ta'minot va Internet xizmatlari sifatidataqdim etishadi. Hamda har bir media turi tarkibni, shuningdek, ushbu kontent yetkazib beriladigan qurilma yoki obyektini o'z ichiga oladi.

Mediamadaniyat turli internet mahsulotlarini tahlil qilish, baholash, yaratish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi hisoblanadi. Zamonaviy talaba yoshlarning ma'lum ma'nodagi himoya qobig'i bo'lib hisoblanadi. Ular media mahsulotlarni o'z «ma'naviy filtr»lari, ya'ni mafkuraviy immunitetlari orqali ko'ra olishadi, o'qib, fikrlab, tahlil qila olishadi. Albatta bunda ham ma'lum ma'noda bilimlar talab qilinadi. Ilmiy va badiiy adabiyotlarni o'qish, o'z tarixi va madaniyatini bilish, ommaviy madaniyat ko'rinishidagi zamonaviy axborot xurujlaridan boxabar bo'lish kabilarni bunga misol keltirish mumkin. Bunda ular mediamatnlardagi targ'ibot va tashviqotlarni, biryoqlamalikni va buning sabablarini, ma'lumot tarqatuvchining niyatlarini sezib, ko'rib turishadi. Bunday mediamadaniyat mediamahsulotlarga tanqidiy yondashuvni belgilab beradi, aldanishlardan asraydi.

Mediamahsulotlardan to'g'ri va o'z o'rnida foydalanish va mediasavodxonlik darajasini belgilashda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini hosil qilish o'ta muhim hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash bu - qabul qilinayotgan yoki mavjud axborotlar, qarashlar, farazlarga tanqidiy, xolis va tahliliy

yondashish, mantiqiy analiz qilib ko'rish, hamda subektiv va xolis axborotlarni ajratish, fakt va fikrlarni farqlay olish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, axborotlashgan jamiyatning har bir a'zosi yoshi, jinsi, kasb-kori va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar mediaga nisbatan tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Mazkur ko'nikma insonlarni nafaqat zararli axborotlardan balki ortiqcha axborotlardan ham himoya qiladi. Chunki ortiqcha axborot ham bir kun kelib zararli axborotga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet tahdidlaridan himoya. Muhammad Amin Yahyo. Toshkent. "Movarounnahr" nashriyoti 2016 yil.
2. Mediata'lim. Uslubiy qo'llanma. N.Muratova, M.Otamurodova, P.Omonova. -Toshkent, 2022.
3. M.Quronov, Mediaogohlik "Ma'rifat" 2012 yil, 7 noyabr № 88 (8529).
4. Baranov O.A. Mediaobrazovaniye v shkole i vuze. Tver: Izd-vo Tverskogo gos. un-ta, 2002.
5. Bevor, E. Yunye, media i mediaobrazovaniye//Sredstva kommunikatsii i problem razvitiya lichnosti rebenka/Red. A.V.Sharikov. - M.: YuNPRESS, 1994.
6. Jo'rayev H.O. Integrasiyalashgan mediata'limdan foydalanib muqobil energiya manbalariga oid ma'lumotlar berish// O'zMU xabarlar. – Toshkent, 2016.№1/5.
7. Jo'rayev H.O. Integrasiyalashgan mediata'lim tizimini yaratishda muqobil energiya manbalari qurilmalaridan foydalanish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Nukus. 2019.
8. Nekboyev X. Ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish// Globallashuv jarayonida innovasion pedagogik texnologiya – ta'lim – tarbiya samaradorligini oshirishning muhim ijtimoiy omili: Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi. – Qarshi, 2016.

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯДА ИННОВАЦИЯЛАР

6 ЖИЛД, 3 СОН

ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ
ТОМ 6, НОМЕР 3

INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY
VOLUME 6, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000